



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QARORI

Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Aholi farovonligini ta‘minlash va hududlardagi masalalarni hal etishda aholining rolini oshirish, budget mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishini ta‘minlash va tashabbusli budget jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666–IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda** har yili ovoz berish jarayonlari boshlanishidan avval fuqarolarni xabardor qilish maqsadida maxsus bepul “SMS” xabarnomalar yuborilishini ta‘minlasin.

3. **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Madaniyat vazirligi:**

tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibiga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni aholiga yetkazish bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rsin;

har mavsum davomida aholi ichida mashhur san‘at vakillari ishtirokida maxsus “**chellenjlar**” ishlab chiqib, aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilsin.

4. **O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi** ovoz berish jarayonlarida budget tashkiloti xodimlarini majburiy ovoz berishga jalb etish holatlarining oldini olish maqsadida “qaynoq liniya” qisqa raqamini ishga tushirsin.

5. Tashabbusli budget loyihalarini ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli qarori bilan tashkil etilgan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha shtablariga yuklatilsin.

6. Mazkur Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining Raisi**



T. Narbayeva

Toshkent shahri,
2024-yil 29-iyul,
№ KQ-787-IV.

**Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan qo‘shimcha
va o‘zgartirishlar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666–IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **2-band** quyidagi mazmundagi **o‘n birinchi** xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“monitoring” moduli –Portalda loyihalar ijrosi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijalari aks ettirib boriladigan maxsus bo‘lim”;

2) **12-band** quyidagi mazmundagi **uchinchi** xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Har oy (chorak) yakuni bo‘yicha yakunlangan va foydalanishga topshirilgan loyihalar yuzasidan tejalgan mablag‘lar (kafolat summasi bundan mustasno) avtomatik tarzda Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi orqali tegishli tuman (shahar) Jamg‘armasida tiklanadi”;

3) **17-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Har bir mavsum qoida tariqasida quyidagi bosqichlarda va muddatlarda o‘tkaziladi:

fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish – 20 kun;

ishchi komissiya tomonidan loyihalarni saralab olish – 20 kun;

saralashdan o‘tgan loyihalar bo‘yicha targ‘ibot bosqichi – 7 kun;

saralashdan o‘tgan loyihalarga ovoz berish – 10 kun.

Bosqichlarning davomiyligiga vakolatli organ tomonidan har bir mavsumning o‘ziga xosligidan hamda texnologik shartlarni inobatga olgan holda aniqlik kiritilishi mumkin”;

4) **19-band** quyidagi mazmundagi **ikkinchi** xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, barcha mahallalar uchun g‘olib bo‘lish imkoniyatini yaratish maqsadida tashabbusli budget doirasida so‘nggi mavsumlarda ketma-ket ikki marotaba g‘olib deb topilgan mahallalar (tashkilotlar) uchun navbatdagi ikkita mavsum doirasida loyiha kiritish imkoniyati cheklanadi”;

5) **23-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Ilgari surilgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan quyidagi mezonlar asosida tanlab olinadi:

loyihada aks etgan muammo/tadbir tegishli tuman (shahar) hududiga tegishli bo'lishi;

ijtimoiy soha tashkilotlari bino va inshootlarini ta'mirlash yoki jihozlash, bunda tashabbusli budjet jarayonida ishtirok etishi ruxsat etilgan tashkilotlar ro'yxati vakolatli organ tomonidan har mavsum boshida "Ochiq budjet" axborot portalida e'lon qilib boriladi;

jamoaviy muammolarni hal etishga qaratilganligi (yo'llarni ta'mirlash, xiyobonlar va bolalar maydonchalarini barpo etish, ekologiyani yaxshilash, ichimlik va oqova suv ta'minotini yaxshilash, ko'cha chiroqlarini o'rnatish (ta'mirlash) va **mahalla hududini obod qilish bo'yicha tadbirlar;**

jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar idoraviy yoki shaxsiy xususiyatga ega bo'lmasligi (shaxsiy avtomashina, turar joy, bino-inshootlarni xarid qilish, ma'muriy binolarni ta'mirlash);

xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritmasligi va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlamasligi hamda loyihani amalga oshirish natijasida pullik xizmat asosida foydalanilmasligi;

budjet tashkilotini saqlab turish bilan bog'liq xarajatlarni o'zida aks ettirmasligi (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, kommunal, aloqa va Internet xizmati uchun to'lovlar, shuningdek, kanstovar va boshqa tez eskiruvchi moddiy qiymatliklar);

mahalliy davlat hokimiyati, davlat organlarining binolarini **shuningdek, ushbu organlar balansida bo'lgan obyektlarni** qurish, ta'mirlash va jihozlashga qaratilgan bo'lmasligi;

boshqa dastur yoki Hukumat topshiriqlari asosida moliyalashtirish manbasi aniq belgilab berilgan obyekt yoki ishlarni o'z ichiga olmasligi;

loyihani amalga oshirishning umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshmasligi lozim.

Bunda bir xil mazmundagi bir necha loyihalar ilgari surilgan bo'lsa, ulardan ma'lumoti to'liq ko'rsatilgan dastlabki kiritilgan loyiha qabul qilinadi";

6)34-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"34. Saralash bosqichi yakunlariga ko'ra loyihalarni targ'ib qilish uchun targ'ibot bosqichi o'tkaziladi. Bunda tashabbuskorlar loyihalariga ovoz to'plash uchun o'z loyihalarini targ'ib qiladilar.

Bunda targ'ibot bosqichi boshlangunga qadar kelib tushgan barcha loyihalar saralashdan o'tkazilishiga shaxsan Ishchi komissiya mas'ul hisoblanadi.

Targ'ibot bosqichi yakunlariga ko'ra Portalda ovoz berish jarayonlari o'tkaziladi";

7)38-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"ovoz berish bosqichi yakunlangan kun holatiga Portalda tegishli mavsum uchun yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'larga aniqlik kiritiladi";

8) quyidagi **38¹-band** bilan to'ldirilsin:

“**38¹**. Ovoz berish jarayoni davomida fuqarolar tomonidan loyihalarga majburiy ovoz to'plashga jalb etilishi yuzasidan shikoyatlar kelib tushsa, vakolatli organ tomonidan mazkur holatga aniqlik kiritish yuzasidan tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashiga taqdimnoma yuboriladi.

Agar holat o'z tasdig'ini topsa tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlariga majburiy ovoz to'plangan loyihalarni ovoz berish bosqichidan chetlatish yoki g'oliblar ro'yxatidan chiqarish vakolati beriladi.

Bunda, loyiha g'olib loyiha sifatida aniqlangandan so'ng Kengash tomonidan majburiy ravishda ovoz to'plagan deb topilib rad etilganda, rad etilgan loyihaga ajratilishi lozim bo'lgan mablag'lar doirasida keyingi o'rindagi loyiha(lar) g'olib deb e'lon qilinadi”;

9)40-band quyidagi mazmundagi **ikkinchi** va **uchinchi** xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“G'olib loyihalar aniqlangandan so'ng xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga mahalliy budjetning qo'shimcha mablag'lari hisobidan keyingi o'rinlardagi loyihalarni qo'shimcha tarzda g'olib deb e'lon qilish vakolati beriladi.

Bunda, tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari Jamg'armaga mablag'lar o'tkazilganligi hamda qo'shimcha g'oliblarni aniqlash yuzasidan vakolatli organga ovoz berish jarayoni yakunlangan kundan boshlab 10 kun ichida murojaat yuborishi lozim.”

10)44-bandning birinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon yoki qarorlari” degan so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon yoki qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari” degan so'zlarga almashtirilsin.

11)55-band quyidagi mazmundagi **ikkinchi** xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Bunda, Jamg'arma hisobidan loyihaga ajratiladigan mablag' tegishli mavsum o'tkazilgan holatga amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshib ketmasligi lozim. Loyiha qiymati ushbu miqdordan oshgan hollarda qo'shimcha talab etiladigan mablag' tuman (shahar) mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qaroriga asosan qoplab berilishi mumkin.”;

ikkinchi xatboshi **uchinchi** xatboshi deb hisoblansin;

12)quyidagi 79¹-band bilan to'ldirilsin:

“**79¹**. Loyihalarning amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borish va monitoringini kuchaytirish maqsadida Portalda Sayyor-monitoring bo'limi ishga tushiriladi.

Bunda, tumandagi ishchi organ har oy loyihalarni bevosita joyiga chiqqan holda doimiy tarzda nazorat qilib borish hamda pudratchilar uchun to'lov qilishdan avval Sayyor-monitoring bo'limi orqali obyektning joriy holatini o'rganish va Portalda qayd etish imkoniyati yaratiladi”;

13)90-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunda ushbu xabar Portalda tegishli hudud sahifasida muammoli holat sifatida aks ettiriladi va tashabbuskor tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan vajlarga aniqlik kiritilib xabarda ko‘rsatilgan holat bartaraf etilmagunga qadar Portalda nazoratdan olinmaydi”;

14)92-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“92. Ishlar to‘liq yakunlangan loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga topshiriladi”;

15)93-bandning ikkinchi xatboshisidagi “idoralarga” degan so‘z “ushbu reyestrni yuritishga vakolatli bo‘lgan organga” degan so‘z bilan almashtirilsin.